

MINTAQADA TRANSPORT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TADQIQI

Sapayev Axmed Durdibayevich

Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya

Maqolada Xorazm viloyati transport tizimini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar tadqiq qilingan. Transport tizimining viloyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir darajasi o'rganilgan va mintaqada transport xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: transport, transport tizimi, transport infratuzilmasi, avtotransport xizmatlari.

Аннотация

В статье рассматриваются факторы, влияющие на совершенствование транспортной системы Хорезмской области. Изучен уровень влияния транспортной системы на социально-экономическое развитие региона, разработаны научные предложения и рекомендации по развитию транспортных услуг в регионе.

Ключевые слова: транспорт, транспортная система, транспортная инфраструктура, автотранспортные услуги.

Abstract

The article examines the factors influencing the improvement of the transport system of the Khorezm region. The level of influence of the transport system on the socio-economic development of the region is studied, and scientific proposals and recommendations for the development of transport services in the region are developed.

Keywords: transport, transport system, transport infrastructure, auto transport services.

KIRISH

Mintaqada transport tizimini rivojlantirish infratuzilmani ta'minlashning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Transport tizimi asosan transport infratuzilmasi elementlarining mavjudligi va sifati bilan belgilanadi. Bunga quyidagilar kiradi: havo xizmatlari va aeroportlar, quruqlikdagi transport tizimlari va yo'nalishlari hamda suv transporti infratuzilmasi.

Yo'l sig'iminining yaxshilanishi (masalan, yo'llarning ko'payishi, ishonchlikning oshishi, yo'l qoplamasining yaxshilanishi, yo'llarning kengayishi, yo'l belgilari va xavfsizlik tizimlarining samaradorligi ortishi) yoqilg'i sarfini, transport vositalarining eskirishini va tranzit vaqtini kamaytiradi. Transport xizmatlari bozorining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan globallashtirish logistika xizmatlari sifatini oshirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida transport munosabatlari va texnologiyalarining rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Transport kompaniyalari va boshqa vositachilarning logistika zanjirlariga jalb qilinishi yakuniy mahsulot tannarxining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Transport tizimi hudud va tarmoqlar taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri bo'lib, u resurslar va tovarlar harakatini ta'minlaydi.

Transport xizmatlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyotni ham ta'minlashda alohida ahamiyatga ega bo'lib, u aholining kundalik hayotiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biridir. Chunki aholi kundalik hayotida transport xizmatlaridan keng foydalanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, aholi sonining ortishi transport xizmatlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda transport xizmatlarining rolini baholash va uning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni¹ doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaning 36-maqsadida "Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish" vazifasi belgilab berilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transport vositalarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida iqtisodchilar transport rivojlanishining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sirini uzoq vaqtdan beri ta'kidlab kelishmoqda [2].

Transport tizimi iqtisodiy samaradorlik va o'sishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi, transport infratuzilmasining barqaror iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati, uning mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga bog'liqlik darajalari aniqlangan [3]. Transportning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati ham chuqur tadqiq qilingan [4].

Transportni rivojlantirish bandlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning samarali vositasi sifatida qaraladi [5]. Transport mintaqaviy iqtisodiy integratsiya uchun muhim bo'lib, u savdo imkoniyatlarini kengaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va urbanizatsiya uchun qulay sharoit yaratish imkonini beradi [6]. Transport tizimining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri faqat infratuzilmani rivojlantirish doirasida emas, balki kengroq miqyosda ham o'rganilishi lozim [7].

Transport va iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo ularning o'zaro ta'siri hali ham to'liq tushuntirilmagan [8]. Bundan tashqari, olimlar transport infratuzilmasiga sarmoya kiritish mintaqaviy iqtisodiy o'sishni tezlashtira oladimi, degan masalaga ham alohida e'tibor qaratganlar. Transport tizimlarining rivojlanishi uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

tezlashtirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi va uni institutsional o'zgarishlarga ta'siri mavjud [9].

Transportning rivojlanishi tovar va odamlar oqimini tezlashtiradi hamda ijodiy shaxslarning bir joyga to'planishini osonlashtiradi, bu esa mintaqaning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Xuddi shunday, transport xarajatlarini kamaytirish va transportdan olinadigan daromadlarni ko'paytirish bilan birga, katta kapital va ishchi kuchiga ega yirik mintaqalarda iqtisodiy aglomeratsiya yuzaga keladi. Bu esa mintaqaviy innovatsion salohiyatni oshiradi [10].

Transport tizimining takomillashishi iqtisodiy o'sish va farovonlikka hissa qo'shadi, tovar va xizmatlar narxini pasaytiradi hamda savdoni rag'batlantiradi [11]. Shuningdek, rivojlangan transport infratuzilmasi ilmiy bilimlar va texnologik ishlanmalarning tarqalishiga ta'sir ko'rsatadi va natijada inson ilmiy kapitalini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [12].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat va uning hududlarida rivojlangan hamda bugungi kun talablariga javob beradigan yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga, balki aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Ya'ni, har qanday hududda transport infratuzilmasi keng ko'lamlı iqtisodiy faoliyatning tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Transport infratuzilmasi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bilan birga, turmush darajasini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, turli yo'nalishdagi va turdagi logistika punktlari orqali insonlar hamda tovarlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chish imkoniyatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida transport tizimi taraqqiyotini ta'minlash orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida quyidagi masalalarga e'tibor qaratilgan: Yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish Iqtisodiyot, ijtimoiy soha va boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish Aholiga transport xizmatlarini tubdan yaxshilash Yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof-muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish Har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzallar va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish [1].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqa taraqqiyotini ta'minlashda transport tizimining rivojlanganlik darajasi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki transport tizimining rivojlanishi bevosita infratuzilmaning shakllanganligi bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish uchun qulay iqtisodiy muhit yaratadi. Shu bilan birga, tovarlar va ishchi kuchi harakatini ta'minlab, zarur ishlab chiqarish omillarini yetkazib berishga xizmat qiladi.

Mintaqada yuk tashish hajmi 2024-yilda barcha transport turlari bo'yicha 40,1 million tonnani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,3 foizga oshgan. Yo'lovchi tashish hajmi esa 2024-yilda avtomobil transporti orqali 478,3 million kishini tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 103,8 foizga ko'p.

Viloyatning tuman va shaharlarida yo'lovchi tashish hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni Urganch shahri egallagan bo'lib, bu yerda 98 227,2 ming kishi tashilgan. Eng yuqori ko'rsatkichlar esa Hazorasp (45 177,3 ming kishi), Xonqa (42 951,5 ming kishi) va Gurlan (42 532,6 ming kishi) tumanlarida kuzatilgan.

1-jadval

Hududlar kesimida yo'lovchi tashish, ming kishi¹

Shahar va tumanlar nomi	Ming kishi	2023-yilga nisbatan foiz hisobida	Jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida
Xorazm viloyati	478341,4	103,8	100,0
Urganch shahri	98 227,2	103,8	20,5
Xiva shahri	17 039,4	103,9	3,5
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	19 412,0	104,3	4,1
Gurlan	42 532,6	103,7	8,9
Qo'shko'pir	30 825,9	104,6	6,4
Urganch	41 437,4	104,5	8,7
Hazorasp	45 177,3	103,9	9,4
Tuproqqal'a	15 059,1	102,4	3,2
Xonqa	42 951,5	103,4	9,0
Xiva	39 758,6	103,9	8,3
Shovot	37 801,5	105,7	7,9
Yangiariq	29 446,1	102,5	6,2
Yangibozor	18 672,7	104,8	3,9

Ko'rsatilgan yo'lovchi tashish hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich quyidagi hududlarga to'g'ri kelgan: Tuproqqal'a tumani (15 059,1 ming kishi), Xiva shahri (17 039,4 ming kishi) va Yangibozor tumani (18 672,7 ming kishi).

Transport xizmatlarining rivojlanishi hozirda asosan avtotransport xizmatlari bilan cheklanib qolmoqda. Shunday ekan, boshqa transport turlarining, jumladan, temir yo'l, havo va suv transporti rivojlanishiga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu esa transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirishga, bozor qonunlarining to'laqonli ishlashiga va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, Xorazm viloyatida transport tizimini rivojlantirish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi tahlil qilindi va bu jarayonda transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish muhimligi qayd etildi.

¹ Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

XULOSA VA TAKLIFLAR

Transport ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u katta miqdordagi resurslarni iste‘mol qiladi va atrof-muhitga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Transport tizimini rivojlantirish jarayonida tabiiy ekologik tizimlarga salbiy ta‘sirni kamaytirish ham muhim hisoblanadi. Ma‘lumki, bu ta‘sirlar, ayniqsa, yirik shaharlarda kuchli sezilib, aholi zichligining oshishi bilan yanada ortib bormoqda.

Bu sohada oqilona qarorlar qabul qilish, birinchidan, iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo‘shadi, ikkinchidan, atrof-muhit va insonlarga yetkaziladigan zararli ta‘sirni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida transport tizimi barqaror rivojlanishga ega bo‘lishiga qaramay, xizmatlarning boshqa yo‘nalishlariga nisbatan pastroq o‘sish sur‘atiga ega bo‘lmoqda. Natijada, uning jami xizmatlar tarkibidagi ulushi pasaygan.

Hozirgi holatda transport xizmatlari asosan avtotransport xizmatlariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, boshqa turdagi transport turlarini ham rivojlantirish masalasiga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. D. Spurling, J. Spurling, M. Cao. *Transport Economics Matters: Applying Economic Principles to Transportation in Great Britain*. Brown Walker Press, Boca Raton (2019).

2. Oksana Skorobogatova, Irina Kuzmina-Merlino. *Transport Infrastructure Development Performance*. 16th Conference on Reliability and Statistics in Transportation and Communication, RelStat’2016, 19–22 October, 2016, Riga, Latvia.

3. Filip NISTOR, Cătălin POPA. *The Role of Transport in Economic Development*. “Mircea cel Batran” Naval Academy Scientific Bulletin, Volume XVII – 2014 – Issue 2, Published by “Mircea cel Batran” Naval Academy Press, Constanta, Romania.

4. W. Veeneman. *Developments in Public Transport Governance in the Netherlands; the Maturing of Tendering*. *Research in Transportation Economics*, 69 (2018), pp. 227–234.

5. R. Vickerman. *Can High-Speed Rail Have a Transformative Effect on the Economy?* *Transport Policy*, 62 (2018), pp. 31–37.

6. Koźlak, Aleksandra. (2017). *The Role of the Transport System in Stimulating Economic and Social Development*. *Zeszyty Naukowe Uniwersytetu Gdańskiego. Ekonomika Transportu i Logistyka*, 72, 19–33. DOI: 10.5604/01.3001.0010.6873.

7. Hong, Z. Chu, Q. Wang. *Transport Infrastructure and Regional Economic Growth: Evidence from China*. *Transport*, 38 (5) (2011), pp. 737–752.

8. D. Banister, K. Button. *Transport, the Environment and Sustainable Development*. Routledge, Abingdon (2015).

9. C. Ding. *Transport Development, Regional Concentration and Economic Growth*. *Urban Studies*, 50 (2) (2013), pp. 312–328.

10. Baier, S.L., Bergstrand, J.H. *The Growth of World Trade: Tariffs, Transport Costs and Income Similarity*. *Journal of International Economics*, 53(1), 1–27 (2001).

11. Deng, T. *Impacts of Transport Infrastructure on Productivity and Economic Growth: Recent Advances and Research Challenges*. *Transport Reviews*, 33(6), 686–699 (2013).



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**